

**“Navoiy kon-metallurgiya kombinati” AJ Komplayens xizmati
tomonidan 2023-yil 9 oy davomida korrupsiyaviy xavf-xatarlarni
aniqlash va baholash yo‘nalishida amalga oshirilgan
ishlar to‘g‘risida**
H I S O B O T

Adliya vazirligi tomonidan 2022-yil 31-avgustda 3383-son bilan ro‘yxatga olingan (*korrupsiyaviy xavf-xatarlarni aniqlash va baholash bo‘yicha*) Uslubiyot hamda Jamiatning tegishli ichki idoraviy hujjatlariga ko‘ra, **“1-son GMZ”** kon boshqarmasida joriy yilning fevral-mart oylarida korrupsiyaviy xavf-xatarlarni aniqlash va baholash o‘tkazildi. Baholash natijalariga ko‘ra, **12 ta** “yuqori” va **30 ta** “o‘rta” darajadagi xavf-xatarlar aniqlanib, ularni oldini olish va bartaraf etish yuzasidan 2023-yil 20-aprelda **36 banddan** iborat chora-tadbirlar Dasturi tasdiqlandi. Ushbu Dasturning 10 ta bandi ijrosi ta’minlandi va qolgan 26 ta bandlar ijrosi nazoratga olindi.

Shu bilan birga, **“NMZ”** ishlab chiqarish birlashmasida joriy yilning may-iyun oylarida korrupsiyaviy xavf-xatarlarni aniqlash va baholash o‘tkazildi. Baholash natijalariga ko‘ra, **325 ta** funksiyalar baholanib, shundan **17 ta** “yuqori” va **51 ta** “o‘rta” darajadagi xavf-xatarlar aniqlanib, ularni oldini olish va bartaraf etish yuzasidan 2023-yil 10-avgustda **57 ta** banddan iborat chora-tadbirlar Dasturi tasdiqlandi. Ushbu Dasturning 30 ta bandi ijrosi ta’minlandi va qolgan 27 ta bandlar ijrosi nazoratga olindi.